


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5930,9 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,3 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-dekabr holatiga

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 96,024 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 120,0 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,001 foizni (o'sish sur'ati 101,5 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,312 foizni (o'sish sur'ati 69,3 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,663 foizni (o'sish sur'ati 111,2 foiz) tashkil qiladi.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-dekabr oyilarga nisbatan 139,0 foiz), Qo'shko'pir tumani (109,6 foiz) Yangiariq tumani (108,3 foiz) va Urganch tumani (107,4)ga va past o'sishga ega bo'lgan Yangibozor tumani (103,2 foiz), Bog'ot tumani (103,2 foiz), Xonqa tumani (102,6 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)




**Xorazm viloyatida asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish.
(natura ko'rinishida)**

Mahsulot turlari	<i>2018 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2017 yil yanvar-dekabr</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts	136,3	604,2	22,6
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.	116,4	212,9	54,7
Engil avtomobillari - dona	31145	20245	153,8
Yuk avtomobillari – dona	7380	3446	2,1 p
Aroq – ming litr	1776	2188	81,2
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr	19,3	19,0	101,8
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr	1200	1200	100,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna	76169,1	73650,0	103,4
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.	119,3	492,0	24,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna	1922,7	3415,5	56,3
Milliy non (yopgan non) – tonna	535,8	632,3	84,7
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna	18864,6	22830,6	82,6
Xo'jalik sovuni – tonna	7379	7306,7	101,0
Paxta tolasi –tonna	78768	90872	86,7
Paxta chigiti-tonna	125117	140752	88,9
Paxta chigiti (lint)-tonna	6792	8518	79,7

Viloyatda yirik korxonalar tomonidan faoliyat turlari bo'yicha asosiy turdagi mahsulot ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasida 22,6 foiz, Issiqlik energiyasi 54,7 foiz, Aroq 81,2 foiz, Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 24,2 foiz, Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) 56,3 foiz, Milliy non (yopgan non) 84,7 foiz, Tozalangan o'simlik yog'I

82,6 foiz, Paxta tolasi 86,7 foiz, Paxta chigiti 88,9 foiz, Paxta chigiti (lint) 79,7 foizga kamayganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 43,6 foiz, Urganch shahri 23,6 foiz, Bog'ot 6,4 foiz, Xonqa 6,1 foiz va Shovot tumani 4,3 foizni va eng past bo'lgan Yangibozor tumani 2,0 foiz, Xiva tumani 1,4 foiz hamda 0,9 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	5930,9	117,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,03	101,5
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,03	101,5
Qayta ishlash faoliyati	5695,1	120,0
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1021,4	99,3
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	228,0	119,1


Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1279,4	104,0
Kiyim ishlab chiqarish	65,6	167,6
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	7,8	102,3
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	4,3	106,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	15,8	105,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	108,8
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,03	109,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,3	108,1
Asosiy farmasevtika	8,2	108,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	24,8	109,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	177,6	104,6
Metallurgiya sanoati	15,0	109,5
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	137,3	118,8
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,01	109,7
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	24,0	108,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	162,0	109,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2345,0	152,5
Mebel ishlab chiqarish	21,6	105,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	129,5	89,4
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	16,7	91,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	196,4	69,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	39,3	111,2

Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	3828,2	127,3
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	971,9	105,6
nooziq-ovqat tovarlari	2856,3	136,8


Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-dekabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 99,3 foiz, Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 89,4 foiz, Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 91,4 foizga o'tgan yilga nisbatan kamaygan.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**

2017 yil yanvar-dekabr




2018 yil yanvar-dekabr



- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 2017 yilda 30,6 foizdan 25,4 foizga kamayganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish e'sa 69,4 foizdan 74,6 foizga ko'payganligi kuzatilmoqda.


**2018-yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)**



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3828,2 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 127,3 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 971,9 mlrd.so'mni va 2856,3 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 105,6 foiz va 136,8 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,5 foizni tashkil qildi.


**2018-yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



Shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'tini ko'radigan bo'lsak, e'ng yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 143,2 foiz, Shovot tumani 125,3 foiz, Bog'ot tumani 116,4 foiz, Xonqa tumani 114,1 foiz va Urganch shahri 110,7 foizga o'sganini ko'rish mumkin.


Shuningdek, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushida 2017 yil yanvar-dekabr oylarida Xazorasp tumani 44,2 foizdan 2018 yilda 55,7 foizga oshgan bo'lsa, Urganch shahri 23,6 foizdan 20 foizga, Xonqa tumani 5,9 foizdan 4,8 foizga va Gurlan tumani 3,3 foizdan 2,3 foizga kamaygan.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar dekabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3258,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'ti 115,4 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida Xazorasp tumani 5337,6 ming so'mdan 2018 yilda 10711,5 ming so'mga, Urganch shahri 8526,0 ming so'mdan 9935,0 ming so'mga, Bog'ot tumani 1246,3 ming so'mdan 2362,7 ming so'mga oshgan bo'lsa, Shovot tumani 1778,0 ming so'mdan 1551,1 ming so'mga va Xiva shahri 825,8 ming so'mdan 619,4 ming so'mga kamaygani kuzatildi.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018 yil yanvar dekabr oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2103,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'ti 125,2 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida Xazorasp tumani 4450,7 ming so'mdan 2018 yilda 8837,5 ming so'mga, Urganch shahri 5020,3 ming so'mdan 5436,3 ming so'mga, Shovot tumani 375,5 ming so'mdan 821,6 ming so'mga, Yangiariq tumani 120,6 ming so'mdan 508,5 ming so'mga oshgan bo'lsa, Urganch tumani 1014,9 ming so'mdan 691,6 ming so'mga kamaygani kuzatildi.

2017-2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (fozda)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulush 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 31,7 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori bo'lgan Xiva tumani 100,0 foiz va Xiva shahri 99,6 foiz bo'lib, eng kam Xonqa tumani 34,3 foiz, Yangiariq 36,2 foiz, Yangibozor tumani 38,6 foiz va 5,9 foiz Xazorasp tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi” bo'limi
Nashr uchun ma'sul: K.Kuryazov
Aloqa telefoni (0362) 224-64-99